

ANVAR BAXRANOV, RUSTAMJON O'RINOV



FE'L NISBATLARI

Rustamjon O'rinov

https://t.me/Ona_tili_va_adabiyot_N1

(havola ustiga bosing va kanalimizga a'zo bo'ling)



Rustamjon O‘rinov

FE'L NISBATLARI

Bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi yoki fe'ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shakllar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllari **nisbat shakllari** sanaladi, shunday shakllar tizimiga esa **nisbat kategoriyasi** deyiladi. Masalan, *supurdi* fe'lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, *supurildi* fe'lida noaniq, *supurishdi* fe'lida birdan ortiq, *supurtirdi* fe'lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan.

O'zbek tilida 5 ta nisbat bor.	
aniq nisbat	—
o'zlik nisbat	-n, -in, -l, -il
majhul nisbat	-n, -in, -l, -il
orttirma nisbat	-t, -dir, -tir, giz, -gaz, -sat, -ir, -ar, -iz
birgalik nisbat	-sh, -ish

Aniq (bosh) nisbat – bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli. Fe'lning barcha nisbatlari aniq nisbat orqali aniqlanadi. Aniq nisbat hech qanday grammatik qo'shimcha olmagan nisbat sanaladi. Aniq nisbat harakatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi.

Nisbat shakllari fe'lning asos qismidan so'ng qo'shiladi.

Aniq nisbat tarkibida tilimizda soddalanishiga uchragan quyidagi yasovchi qo'shimchalar ham uchrashi uning boshqa nisbatlar bilan o'xshash shaklda qo'llanilishiga olib keladi:

-lan qo'shimchasi:	Faxr/lan/di, shod/lan/di – aniq nisbat; bog'la/n/di – o'zlik yoki majhul nisbat. Faxrlandi, shodlandi so'zlaridagi -lan qo'shimchasi ma'noli qismlarga bo'linmaganligi sababli, shuningdek -lan qo'shimchasi boshqa nisbat qo'shimchalar orasida bo'lmaganligi uchun aniq nisbat sanalsa, bog'landi, tashlandi so'zlarida <i>la+n</i> (-la yasovchi shakl, -n nisbat shakli) alohida-alohida qo'shimchalardir.
-lash qo'shimchasi:	Yuzlashdi, gaplashdi – aniq nisbat; so'zlashdi, bog'lashdi – birgalik nisbat. Yuzlashdi, gaplashdi so'zlaridagi -lash qo'shimchasi ma'noli qismlarga bo'linmagani uchun aniq nisbatni ifodalasa, so'zlashdi, bog'lashdi so'zlarida esa <i>-la+sh</i> (-la yasovchi shakl, -sh nisbat shakli) ajralgani, va birgalik nisbat shaklini bildirgani tufayli ham aniq nisbat sanalmaydi.

Go'zallashmoq, ommalashmoq, hazillashmoq, o'rtoqlashmoq, tillashmoq, jonlanmoq, faxrlanmoq, odatlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq, to'qnashmoq, janjallashmoq, gaplashmoq, toblanmoq, bahslashmoq, harakatlanmoq kabi fe'llar **aniq nisbat** shaklida qo'llangan.

Bosh nisbat ma'nosida birgalik va majhul nisbat shakllari ishlatilishi mumkin: *keldi* – *kelishdi*, *kelyapti* – *kelishyapti*; *aytdim* – *aytildi*, *bajardim* – *bajarildi*, *amalga oshiring* – *amalga oshirilsin* kabi. Bunday holat ma'lum uslub – emotsional ma'no talabi bilan ro'y berdi. Ko'pincha keyingi holat hurmat, kamtarlik ma'nolarini ifodalaydi.

O'zlik va majhul nisbat. Mazkur nisbatlar bir xil *-(i)n*, *-(i)l* qo'shimchalari vositasida hosil qilinadi. Fe'ning aynan qaysi nisbatda ekanligini belgilashda gap mazmuni ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Taqqoslang:

O'zlik nisbat	Majhul nisbat
<i>Islomov Farid musiqaga bog'landi.</i>	<i>Yaylovga bir qancha mollar bog'landi.</i>
<i>U yuziga belbog'ini tashlab, ko'rpachaga cho'zildi.</i>	<i>Lag'mon ingichka qilib cho'zildi.</i>
<i>Odamlar guzarda to'plandi.</i>	<i>Mashrab she'rlari to'plandi.</i>
<i>Yo'lbars o'z o'ljasiga tashlandi.</i>	<i>O'rtaq bir qancha masalalar tashlandi.</i>

O'zlik nisbati *-(i)sh* qo'shimchasi orqali ham hosil qilinishi mumkin: *Karim kerishdi.*
Fotima yotoqxonaga joylashdi.

Yayra, qichqir, uxla, bor, o'qi, hayda, ek, kes, tik, sug'or fe'llaridan mutlaqo o'zlik nisbati yasalmaydi.

O'zlik nisbat bajaruvchining o'z ustida amalga oshadigan harakat-holatni ifodalaydi. O'zlik nisbat harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi: *U ohista tebrandi.*

Majhul nisbat harakat bajaruvchisining noaniqligini ifodalab, aniq nisbat to'ldiruvchisini gapning egasi darajasiga aylantiradi. Shuning uchun majhul nisbatda asosiy ma'no harakatning bildiruvchisiga emas, balki nima qilinishiga qaratiladi. Masalan, *Binokorlar bu uyni tez qurdilar. Bu uylar tez qurildi.*

Majhul nisbat asosan, o'timli fe'ldan va o'timsiz fe'lning orttirma nisbat shaklidan hosil qilinadi. O'timsiz fe'llardan hosil qilingan majhul nisbat harakatni bajarishga imkoniyat borligini, harakatning oddiyligini ifodalaydi.

Majhul nisbatdagi ish-harakatni bildiruvchi fe'llar, asosan, III shaxs, birlik shaklida kelib, shaxsi noma'lum gap (*shaxsi topilmas gap*) turini hosil qiladi: *Majlisda intizom haqida gapirildi.*

Tomonidan vazifadosh ko'makchisi qatnashgan gaplarning fe'li, ko'pincha, majhul nisbatda bo'ladi: *Xat Sharifa tomonidan yozildi.*

Birgalik nisbat. Harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodalaydigan nisbat shakli birgalik nisbat shakli deyiladi. Birgalik nisbat shakli fe'l asosiga *-(i)sh* shaklini qo'shish orqali hosil qilinadi: *oqlashdi, yozishdi, o'rishdi* va h.k.

Orttirma nisbat. Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradigan yoki bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat-holatni bildiruvchi fe'l shakllari orttirma nisbat sanaladi. Ushbu nisbatni hosil qiluvchi qo'shimchalar boshqa nisbatlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar miqdoridan ancha ko'pligi bilan ham farqlanadi.

-t, -it, -giz (-kiz, -qiz, -g'iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz, -dir (-tir), -sat kabi shakllar orttirma nisbat shakllarini hosil qiluvchi shakllardir.

-t qo'shimchasi	Asosan, unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli, ba'zan undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga, -it qo'shimchasi esa, asosan, undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: <i>o'qit, ishlat, qisqart, kirit</i> kabi.
-tir qo'shimchasi	Asosan, jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarning ko'pchiligiga, ba'zan jarangsiz undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga, shuningdek, jarangli undosh (sonorlar va y tovushi) bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarning ba'zilariga qo'shiladi: <i>bostir, uchrashtir, qisqartir, quvontir</i> kabi.
-dir qo'shimchasi	Asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi. Lekin <i>kelmoq</i> fe'li asosi jarangli undosh bilan tugagan bo'lsa-da, orttirma nisbatning -dir shakli emas -tir shakli qo'shiladi: <i>to'ldir, yozdir, keltir</i> kabi
-ir, -ar, -iz qo'shimchalari	Undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: <i>shoshir, chiqar, oqiz</i> kabi. -ar qo'shimchasi barcha fe'llarga qo'shib, orttirma nisbatni hosil qilavermaydi: <i>borar, aytar, qarar</i> singari fe'llardagi -ar shakli kelasi zamon yoki sifatdosh shakli sanaladi.
-ar shakli chiq va qayt fe'llarigagina qo'shilganda orttirma nisbat shaklini hosil qiladi: <i>chiqar, qaytar</i> . Biroq bunday shakldagi fe'llarni kelasi zamon yoki sifatdosh shakllaridan farqlamoq lozim. Taqqoslang: <i>Pulni chiqar</i> (orttirma nisbat shakli) – <i>Kitob ertaga chiqar</i> (kelasi zamon gumon shakli); <i>Aytganlarimni qaytar</i> (orttirma nisbat shakli) – <i>Qaytar dunyo</i> (sifatdosh shakli).	
-giz, -g'iz qo'shimchalari	Jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -kiz, -qiz qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: <i>yurgiz, turg'iz, ketqiz, yutqiz</i> kabi.
-sat shakli	Asosan, ko'rmoq fe'lga qo'shiladi: <i>ko'rsat</i> kabi.

Fe'l nisbatlari orasida orttirma nisbat shakllarining birdan ortiq ketma-ket kelish holati uchraydi: *o'qittir, yozdirtir, to'ldirg'iz* kabi. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi kuchayadi.

Solishtirmoq, surishtirmoq, o'rgatmoq kabi so'zlarda orttirma nisbat shakli mavjud emas, chunki bu so'zlarning asoslari *solishtir, surishtir, o'rgat* so'zlariga teng, ya'ni *solish* (janjallashmoq) bilan *solishtir* (taqqoslamog)ning, *surish* (aytishmoq, gap talashmoq) bilan *surishtir* (xabar topmoq)ning aloqasi yo'q; *o'rga* degan asos mavjud emas.

O'zlik, majhul, orttirma nisbat qo'shimchalari so'z yasovchi qo'shimchalardan oldin qo'shilishi mumkin: *saylanma, topilma, muzlatgich, bostirma* kabi.

Aniq, o'zlik, orttirma nisbat shakllari shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llaniladi, majhul nisbat shakllari shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llanilmaydi. Masalan, gapirib o'til deb bo'lmaydi.

Birgalik nisbat shakli, asosan, shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llanilmaydi, ba'zi hollarda buning aksini kuzatish mumkin: *Bor, ukangga qorlarni kurash*.

Bir fe'l tarkibida birdan ortiq boshqa-boshqa nisbat shakllari qo'shilishi mumkin: *keltirishdi, o'qitildi, bezantirildi* kabi. Fe'lning qaysi nisbatdaligi eng oxirgi qo'shimchaga qarab aniqlanadi.

Nisbat qo'shimchalari o'timli-o'timsizlikka daxl qiladi.

o'timli fe'l + $\left\{ \begin{array}{l} \text{o'zlik nisbat} \\ \text{majhul nisbat} \end{array} \right. = \text{o'timsiz fe'l}$

kiy+in=kiyindi

art+in=artindi

o'timsiz fe'l + orttirma nisbat = o'timli fe'l

bor+giz=borgiz

artin+tir=artintir

O'zlik nisbat har doim o'timli fe'ldan hosil bo'ladi: *kiyindi, artindi*

afsuslanmoq	Ushbu fe'llar aniq nisbatda hisoblanadi.
bahslashmoq	
faxrlanmoq	
gaplashmoq	
go'zallashmoq	
harakatlanmoq	
hazillashmoq	
jabrlanmoq	
janjallashmoq	
jonlanmoq	
o'rtoqlashmoq	
odatlanmoq	
ommalashmoq	
otlanmoq	
seskanmoq	
suhbatlashmoq	
to'qnashmoq	
toblanmoq	
zavqlanmoq	

Bir fe'l tarkibida birdan ortiq nisbat qo'shimchalari kelsa, bu fe'l qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab aniqlanadi.

Kiyintirishdi (kiy+in+tir+ish+di) → birgalik nisbatda

o'z.n ort.n bir.n



Rustamjon O'rinov



Rustamjon O‘rinov